



## XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH – TARAQQIYOT GAROVI

**Jahongir Hoshimov**

PhD, Tashkent moliya instituti

"Baholash ishi va investitsiyalar" kafedrasi dotsenti

Tashkent, O'zbekiston. Email: [jahongirhoshimov442@gamil.com](mailto:jahongirhoshimov442@gamil.com)

## ATTRACTING FOREIGN INVESTMENTS - DEVELOPMENT GUARANTEE

**Jahongir Khoshimov**

PhD, Tashkent Financial Institute

Associate Professor of the "Evaluation Work and Investments" Department

Tashkent, Uzbekistan. Email: [jahongirhoshimov442@gamil.com](mailto:jahongirhoshimov442@gamil.com)

### **JEL Classification: D2, D25**

**Annotatsiya.** Maqolada xorijiy investitsiyalarining mazmuni, jalg qilish shakllari, O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishdagi roli yoritilgan. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mamlakatimizda iqtisodiy o'sish sur'atlarini oshirish hamda aholi turmush farovonligini o'sishiga, iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish va yangi ish o'rinalarini yaratishga xizmat qiluvchi faol investitsiya siyosatini ishlab chiqish muhim vazifalaridan biri ekanligi ko'rsatib o'tilgan. Davlat investitsiya siyosati hamda hududiy rivojlanish siyosati modernizatsiyasining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida investitsion salohiyatdan samarali foydalanish imkoniyatlari tadqiq etilgan. O'zbekiston Respublikasining investitsiya siyosatiga ta'lqli asosiy ko'rsatkichlar, xorijiy investitsiyalarini jalg qilishda investitsion muhit jozibadorligini oshirish borasida ilg'or tajribalar va ulardan O'zbekiston sharoitida foydalanish masalalari o'rjanilgan. Shuningdek, mamlakatda xorijiy investitsiya jalg qilishdagi so'ngi yillar tendensiyasi tahlil qilingan. Shuningdek, investitsiya muhitini takomillashtirish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarini faol jalg qilish, investitsiya muhiti jozibadorligini oshirish va xorijiy investitsiyalarini faol jalg qilishga

qaratilgan taklif va tavsiyalar shakllantirilgan.

**Abstract.** The content of foreign investments, the forms of attraction, their role in the development of the economy of Uzbekistan are covered in the article. It has been shown that one of the important tasks of developing an active investment policy that serves to increase the rate of economic growth in our country in the conditions of the digital economy and increase the well-being of the population, structural restructuring of the economy and the creation of new jobs. As one of the important directions of modernization of state investment policy and regional development policy, the possibilities of effective use of investment potential have been researched. Key indicators related to the investment policy of the Republic of Uzbekistan, best practices in increasing the attractiveness of the investment environment in attracting foreign investments, and issues of their use in the conditions of Uzbekistan were studied. Also, the trend of attracting foreign investment in the country in recent years has been analyzed. In addition, proposals and recommendations aimed at improving the investment environment, actively attracting foreign direct investments to sectors and regions of the country's economy, increasing the attractiveness of the

investment environment, and actively attracting foreign investments have been formulated.

**Kalit so‘zlar:** investitsiya, chet el investitsiyalar, asosiy kapital, investitsiya muhiti, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, imtiyozlar, yalpi ichki mahsulot, chet el investitsiya ishtirokidagi korxonalar.

**Key words:** investments, foreign investment, fixed capital, investment environment, foreign direct investment, incentives, gross domestic product, enterprise with foreign investment.

**Kirish.** Har qanday mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotida investitsiyalar muhim o‘rin egallaydi. Xorijiy investorlarning investitsiyalarini jalg qilish va ichki investiiyalardan samarali foydalanish investitsiya jarayonlarining faollashuviga, zamonaviy texnologiyalarning joriy qilinishiga, ilg‘or va xorijiy tajribalardan foydalanilishiga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlanтирilishiga hamda hududlarning investitsion salohiyati o‘sishiga ko‘maklashadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, «Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo‘lsa, o‘z iqtisodiyotining barqaror o‘sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o‘zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi» [1]. Darhaqiqat, investitsiyalar, shu jumladan, xorijiy investitsiyalar ham drayver sifatida iqtisodiy va texnologik taraqqiyotni jadallashtirish, ishlab chiqarish obyektlarini yangilash va modernizatsiya qilish hamda ishlab chiqarishni boshqarishning ilg‘or usullarini o‘zlashtirishda namoyon bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan xorijiy investitsiyalarini jalg qilishni faollashtirish bugungi kuning dolzarb vazifalaridandir.

AQSH olimlaridan William F.Sharpe, Gordon J.Alexander, Jeffery V.Baileyning [2] ilmiy asarida investitsiyalash jarayonidagi muammolar, jumladan, fond bozori orqali investitsiyalarni jalg qilish va molialashtirish masalalari atroflicha tadqiq qilingan. Investitsiya muhiti qimmatli qog‘ozlar, fond bozori va moliyaviy vositachilar orqali ochib berilgan. Investitsiyalash jarayonida institutsional investorlarning roli muhimligiga alohida e’tibor qaratilgan va umuman xorijiy investitsiyalarini jalg qilish va ulardan samarali foydalanish yo’llari fond bozori asosida yoritilgan.

Xorijiy investitsiyalarning kirib kelishi qimmatli qog‘ozlar bozorining rivojlanishiga sabab bo‘ladi, chunki xorijiy investitsiyalarni jalg qilish bo‘yicha intensiv firmalar tashqi fondlarni jalg qilish uchun mahalliy aksiyalar bozorida o‘z aksiyalarini listingdan o‘tkazadi. Jamg‘arma oqimi va operatsiyalarning ko‘payishi moliyaviy vositachilikka bo‘lgan talabni oshiradi va natijada qimmatli qog‘ozlar bozori rivojlanadi [3].

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarini jalg qilishning asosiy omillari bozorlar va resurslarga kirishdir. Chet el kapitalining faqat ayrim mintaqalarda va ayrim tarmoqlarda kontsentratsiyasi boshqa mintaqalar iqtisodiyotining rivojlanishini cheklaydi, birinchi navbatda sanoati rivojlanmagan mintaqalar iqtisodiyotiga ta’sir qiladi [4].

Korxonalarning investitsion jozibadorligi bevosita mamlakatdagi investitsiya siyosatiga va yaratilgan investitsion muhitiga bog‘liq. Xusan, investitsiya muhiti uchta elementdan iborat tizim sifatida ko‘rib chiqiladi: investitsiya salohiyati, investitsiya riski va qonunchilik shartlari [5]. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda investitsiya jarayoni bozor konyunkturasi ta’siriga, investitsiyalarni

moliyalashtirish manbalariga va hajmiga bog'liq.

Investitsion jozibadorlik bu potensial investorga mavjud mablag'larni investitsiya qilish maqsadida ma'lum bir investitsiya obyekti boshqalariga qaraganda qanchalik jozibador ekanligini baholashga imkon beradigan xususiyatlar to'plami hisoblanadi [6].

Rossiyalik iqtisodchi-olimlardan M.Suleymanov va A.Mixinning [7] fikricha, iqtisodiy rivojlanishning muhim shartlaridan biri yuqori investitsion faoliykdir. Bunday natijaga moddiy ishlab chiqarish va ijtimoiy sohaning ustuvor tarmoqlariga investitsiyalar jalb qilish va samarali o'zlashtirish orqali erishiladi deb ta'kidlagan.

A.Vaxabov, Sh.Xajibakiyev va N.Muminovlarning [8] ilmiy ishlarida xorijiy investitsiyalarning mazmuni, turlari, ularni jalb qilish shakllari, iqtisodiyot taraqqiyotidagi roli, chet el sarmoyalarining xalqaro harakat, erkin iqtisodiy zonalarga investitsiyalarni jalb qilish kabi masalalar tadqiq etilgan.

**Material va metod.** Mamlakatda investitsion faoliyatning taraqqiyoti, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish ko'lami, aksariyat

hollarda, ular salmog'ining darajasi bilan izohlashga harakat qilinadi. Shunga mos ravishda, agar tegishli salmoqni ifodalovchi ko'rsatkich darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, uning roli ham yuqori va aksincha xulosaga kelinadi. Ana shunday yondashuvga tayangan holda xorijiy investitsiyalarni xarakterlovchi ma'lumotlar quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval ma'lumotlarini tahlil qilish asosida quyidagi bir necha muhim xulosalarni chiqarish mumkin: 2016-2022 yillar davomida mamlakatimizda YaIM hajmining umumiyligi summasi barcha omillarning ta'siri ostida (shu jumladan, inflyatsiya, konvertatsiya, koronavirus pandemiyasi) 0,3 martaga kamaygan; xuddi shu davrda xorijiy investitsiyalar umumiyligi summasining o'sish darajasi esa barcha omillar hisobidan (jumladan, inflyatsiya, konvertatsiya, koronavirus pandemiyasi) 2,1 martaga ortgan. Demak, ko'rinish turibdiki, tahlil qilinayotgan davr mobaynida barcha omillar hisobidan xorijiy investitsiyalarning o'sish sur'atlari YaIM hajmining o'sish sur'atlaridan ancha yuqori bo'lgan va bu ko'rsatkichning darajasi 1,87 ga tengdir.

### 1-jadval

#### Yalpi ichki mahsulot va xorijiy investitsiya hajmlarining o'zgarish tendensiyasi (mlrd. AQSH dollari hisobida)<sup>1</sup>

Ko'rsatkichlar	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Yalpi ichki mahsulot hajmi, mlrd. AQSH doll.	67,22	59,1	50,5	58,3	57,7	63,2	74,2
Xorijiy investitsiyalar, mlrd. AQSH doll.	3,8	3,2	3,9	4,3	4,2	10,5	9,8
Xorijiy investitsiyalarning YaIM hajmidagi salmog'i, % da	5,65	5,41	7,72	7,37	7,28	6,02	7,57

Umumiyligi xulosa shundan iboratki, 2016-2022 yillar davomida mamlakat iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalarning roli

o'sib borganligi bilan xarakterlanadi. Bu esa milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, zamонавији texnologiyalarni qo'llash, mehnat


<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

unumdorligini oshirish, zamonaviy boshqaruv tajribalarini o'zlashtirish, yangi ish o'rinalarini yaratish nuqtai nazaridan ijobiy holatni namoyon qiladi.

Shuni alohida qayd etish kerakki, 2016-2022 yillar davomida jalb qilingan xorijiy investitsiyalarning o'sib borishi qat'iylik (barqarorlik) xarakteriga ega emas. Ushbu ko'rsatkich tahlil qilingan yillar daomida «ko'tarilish-pasayish-ko'tarilish-pasayish-ko'tarilish» tarzida o'zgarib borgan. Buning o'ziga xos sabablari, bir tomondan, xorijiy investitsiyalar YaIMning eng muhim va o'zgaruvchan komponenti bo'lib, ularni taxmin qilish juda qiyin. Xorijiy investitsiyalar to'satdan o'sib ketishi yoki aksincha tushib ketishi ham mumkin (masalan, AQSHda buyuk depressiya davrida

investitsiyalar 100 foizga tushib ketgan). Ikkinci tomonidan, bunday manzaraning amaliyotda kuzatilishi bu yerda unga tegishli bo'lgan talaygina muammolarning mavjudligini ham ko'rsatadi.

Mazkur muammolar xorijiy investitsiyalarning muhim turi hisoblangan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda ham ko'zga tashlanadi. Jumladan, 2016-2022 yillarda mamlakat iqtisodiyotga jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning umumiy hajmi 31,1 mlrd. AQSH dollarini tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich qo'shni Qozog'istonda 153,9 mlrd. AQSH dollariga teng bo'lib, ushbu mamlakatga yiliga o'rtacha 22 mlrd. AQSH dollari miqdorida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya oqimi kuzatilmoqda (1-rasm).



**1-rasm. Markaziy Osiyo mamlakatlariiga jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi (mlrd. AQSH dollari hisobida) [13]**

Bunday holat O'zbekiston iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish ishlari talab darajasida emasligini yaqqol namoyon etadi hamda iqtisodiyot o'shining yuqori sur'atlari va xorijiy sarmoyaga o'sib borayotgan talabni qanoatlantirish bir-biriga muvofiq emasligini ko'rsatadi.

Shunday bo'lsa-da, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning mamlakat YAIM hajmidagi salmog'i o'sish sur'atiga ega bo'lgan. Xususan, ushbu ko'rsatkich 2022

yilda 6,03 foizni tashkil qilib, 2016 yilga nisbatan 2,9 f.p.ga oshgan.

O'z navbatida, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning mamlakat YAIM hajmidagi salmog'ining o'sib borishi O'zbekistonda xorijiy mamlakatlar bilan tashkil etilgan qo'shma korxonalar sonining ko'payib borayotganligidan darak beradi. 2018 yildan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar ustav fondidagi xorijiy investitsiyalar ulushining eng kam miqdorining 30 foizdan 15 foizgacha

kamaytirilishi, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonaning ishtirokchisi sifatida xorijiy yuridik shaxs qatnashishi shartligi to‘g‘risidagi talabning bekor qilinishi, ushbu turdag'i korxonalar ustav fondining eng kam miqdorini 600 million so‘mdan 400 million so‘mgacha pasaytirilganligi hamda chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun davlat boji miqdorining uch baravarga kamaytirilganligi [9], xorijiy investitsiyalar miqdoriga qarab soliq imtiyozlarining berilayotganligi [10] xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilishda muhim amaliy ahamiyat kasb etdi.

Jumladan, 2022 yilda O‘zbekistonda xorijiy sarmoya asosida tashkil etilgan korxonalar soni 15801 tani, bu ko‘rsatkich 2016 yilda bor-yo‘g‘i 5517 tani tashkil etgan, ya’ni 2016-2022 yillar davomida ushbu korxonalar soni 3,1 martaga ortgan (xorijiy hamkorlar bilan tashkil etilgan jami qo‘shma korxonalarining 21 foizi Rossiya Federatsiyasi, 17 foizi Xitoy Xalq Respublikasi, 14 foizi Turkiya, 9 foizi Qozog‘iston, 8 foizi Janubiy Koreya va qolgani boshqa rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarga to‘ri keladi [11]).

Biroq, mamlakatimizda fond bozorining yaxshi rivojlanmaganligi porfel shaklidagi xorijiy investitsiyalarni jalb qilinishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Chunonchi, 2016-2022 yillar mobaynida O‘zbekistonga jalb qilingan portfel xorijiy investitsiyalar o‘sish sur’atiga ega bo‘lsa-da, ammo ularning hajmi talab darajasida emas. 2022 yilda ushbu turdag'i investitsiyalarning YaIM hajmidagi ulushi 0,41 foizni tashkil etgan, xolos. Shu munosabat bilan, alohida qayd etish joizki, to‘g‘ridan-to‘g‘ri va portfel xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb qilish holati sust darajada bo‘lib, bunday holat xorijiy investitsiyalarni jalb qilish

mexanizmini takomillashtirish zarurligini kun tartibiga qo‘yadi.

**Natija.** O‘zbekiston iqtisodiyotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish ko‘lami talab darajasida emas. Iqtisodiyot o‘sishining yuqori sur’atlari va xorijiy sarmoyaga o‘sib borayotgan talabni qanoatlantirish bir-biriga nomuvofiq. Xususan, 2016-2022 yillar davomida milliy iqtisodiyotga jalb qilingan xorijiy investitsiyalarning umumiyligi hajmi qo‘shni Qozog‘iston Respublikasiga nisbatan 7,2 martaga kam bo‘lgan.

Mamlakatimizda fond bozorining yaxshi rivojlanmaganligi porfel shaklidagi xorijiy investitsiyalarni jalb qilinishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Chunonchi, 2016-2022 yillar mobaynida O‘zbekistonga jalb qilingan portfel xorijiy investitsiyalar o‘sish sur’atiga ega bo‘lsa-da, ammo ularning hajmi talab darajasida emas. 2022 yilda ushbu turdag'i investitsiyalarning YaIM hajmidagi ulushi 0,41 foizni tashkil etgan, xolos.

Shu munosabat bilan jahon amaliyoti va tajriba asosida iqtisodiy o‘sishning bir maromdag'i yuqori va barqaror sur’atlarini saqlab qolish, iqtisodiyotga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish uchun yirik korxonalar aktivlarining katta qismini chet ellik investorlar qo‘lida bo‘lgan modelni shakllantirish lozim. Ya’ni yirik korxonalar ustav kapitallaridagi davlat aksiyalar (ulushlar) paketlarini sotish maqsadga muvofiqdir. Bu esa, o‘z navbatida, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning umumiyligi investitsiya hajmidagi ulushining oshishiga, milliy fond bozorining taraqqiyotiga imkon beradi.

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning ilg‘or tajribalari ko‘rsatishicha, xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilishning muhim shakllaridan biri – qo‘shma korxonalar tashkil etishdir. O‘zbekistonda bu turdag'i korxonalarining asosiy mezonlaridan biri ustav fondidagi

xorijiy investitsiyalar ulushining eng kam miqdorining belgilanishidir. 2018 yil 1 avgustga qadar bu turdag'i korxonalar ustav fondidagi xorijiy investitsiyalar ulushining eng kam miqdori 30 foizni tashkil qilgan. 2018 yil 1 avgustdan bu ko'rsatkich 15 foizgacha kamaytirilgan. Natijada, qo'shma korxonalar soni 2022 yilda 15801 tani tashkil etib, 2018 yilga nisbatan 6,1 barobarga o'sgan, ya'ni qo'shma korxonalar ustav fondidagi xorijiy investitsiyalar ulushining eng kam miqdorining kamaytirishi bu turdag'i korxonalar sonining sezilarli darajada o'sishiga olib kelgan. Shu munosabat bilan xorijiy investitsiya ishtirokida tashkil etiladigan korxonalar ustav fondidagi xorijiy investitsiyalar ulushining eng kam miqdorini 15 foizdan 10 foizgacha kamaytirish maqsadga muvofiqdir.

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning eng ommabop shakllaridan biri – bu qo'shma korxonalar tashkil qilish hisoblanadi. So'nggi yillarda qo'shma korxonalarini tashkil qilishga (ustav fondini shakllantirish, ro'yxatga olish va h.k.) bo'lgan talablar bir muncha yengillashtirilganligi (yumshatilganligi) hisobiga 2016-2022 yillarda bunday korxonalar soni 3,4 martaga ortgan. Mazkur yillarda jami qo'shma korxonalarining 95 foizi (o'rtacha darajasi) faoliyat yuritgan. Biroq, qo'shma korxonalar tashkil qilishda, ayniqsa joylarda, investorlarning tashabbuslari mahalliy hokimliklar tomonidan lozim darajada qo'llab-quvvatlanmayapti, bu borada vazirlik va idoralar faoliyati aniq muvofiqlashtirilmagan, hududlarda esa ishlab chiqarish sohalariga investitsiya jalb qilish ahvoli talabga javob bermaydi. Joylarda qo'shma korxonalar tashkil etilishida ularni elektr enegiyasi, gaz, ichimlik suvi, aloqa tarmoqlari, xullas, tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta'minlashda muammolar mavjud.

Fikrimizcha, investitsiya muhitini tubdan yaxshilash va milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarning faol jalb qilinishiga erishish maqsadida istiqbolda xorijiy investoring yuqori qiymatli va o'z mablag'lari ulushi 25 foizdan kam bo'lмаган qo'shma investitsiya loyihalarini tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta'minlash Davlat budgeti mablag'lari hisobidan amalga oshirilishi zarur. Bunday amaliyot xalqaro tajribada mavjud bo'lib, masalan, «Chexiya Respublikasida zamonaviy infratuzilmani (transport magistrallaridan tortib kommunikatsion tizimlargacha) yaratish qisman yoki to'lig'icha budget hisobidan moliyalashtiriladi» [12]. Hozirgi kunda bunday tajriba Mustaqil Davlat Hamdo'stligiga a'zo mamlakatlarda ham amalga oshirilmoqda. Bu esa xorijiy investorlar uchun yanada qulay investitsiya muhitining yaratilishiga xizmat qilgani holda yuqori qiymatli qo'shma investitsion loyihalarning samarali amalga oshirilishiga imkoniyat yaratadi.

### Xulosa.

Xorijiy investitsiyalarini jalb qilish – taraqqiyot garoviga bag'ishlangan ilmiytadqiqot ishini amalga oshirish natijasida bir necha xulosalarga kelindi, ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Ular quyidagilardan iborat:

1. 2016-2022 yillarda mamlakatimizda YaIM hajmining umumiy summasi barcha omillarning ta'siri ostida (shu jumladan, konvertatsiya, koronavirus pandemiyasi) 0,3 martaga kamaygan; xuddi shu davrda xorijiy investitsiyalar umumiy summasining o'sish darajasi esa barcha omillar hisobidan (jumladan, inflyatsiya, konvertatsiya, koronavirus pandemiyasi) 2,1 martaga ortgan. Demak, tahlil qilinayotgan davr mobaynida barcha omillar hisobidan xorijiy investitsiyalarning o'sish sur'atlari YaIM hajmining o'sish sur'atlardan anche



yuqori bo'lgan. Bu esa milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, mehnat unumdorligini oshirish, zamonaviy boshqaruv tajribalarini o'zlashtirish, yangi ish o'rinalarini yaratish nuqtai nazaridan ijobjiy holatni namoyon qiladi.

2. 2016-2022 yillar davomida jalb qilingan xorijiy investitsiyalarning o'sib borishi qat'iylik (barqarorlik) xarakteriga ega emas. Ushbu ko'rsatkich tahlil qilingan yillar daomida «ko'tarilish-pasayish-ko'tarilish-pasayish-ko'tarilish» tarzida o'zgarib borgan. Buning o'ziga xos sabablaridan biri xorijiy investitsiyalar YaIMning eng muhim va o'zgaruvchan komponenti bo'lib, ularni taxmin qilish juda qiyin. Xorijiy investitsiyalar to'satdan o'sib ketishi yoki aksincha tushib ketishi ham mumkin. Ikkinchidan, bunday manzaraning amaliyotda kuzatilishi bu yerda unga tegishli talaygina muammolarning mavjudligini ham ko'rsatadi.

3. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni takomillashtirish maqsadida, xususan, amaliyotda quyidagi ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar muhim ahamiyat kasb etadi: yirik korxonalar ustav kapitallaridagi davlat aksiyalar (ulushlar) paketlarini sotish zarur; chet ellik investorlarga kafolatlar va qo'llab-quvvatlash choralar, xususan, imtiyozlar va preferensiylar har bir aniq holatda berilishi lozim; istiqbolda xorijiy investoring yuqori qiymatli va o'z mablag'lari ulushi 25 foizdan kam bo'limgan qo'shma investitsiya loyihibalarini tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta'minlashni moliyalashtirish Davlat budjeti mablag'laridan amalga oshirilishi kerak; xorijiy investitsiya ishtirokida tashkil etiladigan korxonalar ustav fondidagi xorijiy investitsiyalar ulushining eng kam miqdorini 15 foizdan 10 foizgacha kamaytirish lozim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi (<https://kun.uz/99444746>).
2. Sharpe W., Alexander G., Bailey J. Investments. Prentice Hall International, Inc. 1998. – 962 p.
3. Mollah Aminul Islam, Haiyun Liu, Muhammad Asif Khan, Md Tariqul Islam, Md Reza Sultanuzzaman. Does foreign direct investment deepen the financial system in Southeast Asian economies?// Journal of Multinational Financial Management, 12 February 2021. – P.13; <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1042444X21000062>
4. G.M.Galeeva and E.N.Kadeeva. Problems of attracting foreign direct investment into the regional economy.// Journal of Physics: Conference Series, 1730(2021) 012118, 2020. – P. 8; <https://www.scopus.com/record/display.uri?eid=2-s2.0-85101588283&origin=resultslist&sort=plff&src=s&st1=&st2=&sid=03923b56ae3a768b7e57e7279fc4f1dd&sot=b&sdt=b&sl=40&s=TITLE-ABS-KEY%28Investment+attractiveness%29&relpos=16&citeCnt=0&searchTerm=>
5. Oksana V.Takhumova, Elena V.Kasatkina, Elena A.Maslihova, Alexey V.Yumashev, Maria V.Yumasheva. The main directions of increasing the investment attractiveness of the Russian regions in the conditions of institutional transformations.// Revista ESPACIOS, Vol. 39 (Number 37) 2018. – P.12; <http://www.revistaespacios.com/a18v39n37/a18v39n37p06.pdf>



6. Yurii A.Rolik. A Complex Approach to Evaluating the Innovation Strategy of a Company to Determine its Investment Attractiveness.// Procedia – Social and Behavioral Sciences, Volume 99, 6 November 2013, pages 562-571;  
<https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1877042813039712>
7. Сулейманов М., Михин А. Иностранные инвестиции. Монография – М.: МИИ, 2011. – 93с.
8. Vaxabov A., Xajibakiyev Sh., Muminov N. Xorijiy investitsiyalar. – Т.: Moliya, 2010. – 328 b.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 1 avgustdagи «O‘zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5495-son Farmoni.
10. Masalan, jalg qilinayotgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning hajmiga qarab, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘idan, mol-mulk solig‘idan va yagona soliq to‘lovidan ozod etish muddatlari uzaytirilgan.
11. <https://bigasia.ru/content/news/business/rossiya-stala-liderom-po-kolichestvu-sovmestnykh-predpriatiy-v-uzbekistane/>.
12. [https://unctad.org/system/files/officialdocument/wir2021\\_overview\\_ru.pdf](https://unctad.org/system/files/officialdocument/wir2021_overview_ru.pdf).
13. <https://cabar.asia/ru/pryamye-inostrannye-investitsii-v-kazahstane-v-2022-godu-struktura-i-dinamika>.